



YOR-YOR QO'SHIQLARIDA HUDUDIY MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR TALQINI

Ozodova Zilola

Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Allamberganov Hamza

Annotatsiya. Ushbu maqolada yor-yor qo'shiqlarining hududiy o'ziga xos jihatlari va kuylanish tartibi, nikoh to'y marosimlarida qay tarzda ijro etilishi va kelib chiqishi, aynan boshqa hududdagi yor-yorlar qaysi jihatlari bilan Xorazm yor-yorlaridan ajralib turishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nikoh to'y marosimlari, yor-yorlar, hududiy o'ziga xoslik, til xususiyatlari.

KIRISH

“Ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o'rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi... Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan”¹. Shu ma'noda, asrlar davomida og'zaki shaklda yashab kelgan folklor namunalari ham xalqimizning buyuk ma'naviy merosini o'zida jamlagan durdonalardir.

Xalq og'zaki ijodi janrlari orasida ma'naviy qadriyatlarimizdan biriga aylanib ulgurgan yor-yor janri ham o'zining boy tarixiga ega. Shu bilan birgalikda, tuzilishi, hududiy turfaligi, ijro uslubi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi.

Ta'kidlash lozimki, nikoh to'yi marosimlarida yor-yor qo'shiqlarini kuylashning har bir hududda o'ziga xos an'anasi mavjud. Islom dinida nikoh bu, Allohning amri, payg'ambarimiz sallolohu alayhi vasallamning sunnatlari bilan mo'min-musulmonlarning guvohligi va rozichiligi bilan bog'lanadigan muqaddas rishtadir. Qizni uzatish, uni yangi kelinlik uyiga kuzatish asnosida yoshi ulug' onaxonlar, kayvoni momolar tomonidan nasihat ruhida ijro etiladigan yor-yorlar avloddan avlodga o'tib, xalqimizga meros bo'lib kelayotgan yodgorlikdir.

Og'zaki ijod namunalari, ayniqsa, yor-yorlar orqali xalqimizning madaniyati, urf-odati, qadriyatlari va an'analari yaqqol aks etadi. Bundan tashqari, bir hududda kuylanadigan yor-yor qo'shig'i boshqa bir hududnikiga qaraganda ancha farq qiladi. Masalan, Xorazm viloyatida tumanlar ko'p bo'lganligi bilan birgalikda, ularning aytilish uslublari va ijrochiligi, hattoki, so'zlarning mahorat bilan qo'llanilishida ham muayyan farqlar mavjud. Bu holat, ayniqsa, ba'zi tumanlari o'g'uz lahjasida va

¹ Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B. 16.



ba'zilari qipchoq lahjasida ijro etiladigan tumanlar orasida jiddiy tafovutga ega. Jumladan, Xorazm viloyati Shovot tumanida kuylanadigan yor-yor qo'shig'iga murojaat qilamiz:

Avval boshlob Xudoni yod atali yor-yor,
Payg'ambarlar ruhini shod atali yor-yor.
Payg'ambarning qizini Ali olg'on yor-yor,
Qiz olib qiz barmakdin ondin qolg'on yor-yor².

Bugungi kunda Shovot tumanida keng tarzda kuylanib kelinayotagn ushbu yor-yor qo'shig'idan so'ng "Muborak to'y" deb ataluvchi quyidagi folklore namunasi ham ijro etiladi:

Muboraklar bo'lg'oy atgan to'yingiz,
Muboraklar bo'lg'oy atgan to'yingiz,
Jubba tukli koshki ayvon joyingiz,
Mudomo izzatda o'tgay umringiz³.

Yor-yor va "Muborak to'y" qo'shiqlari bir-birini to'ldirib turuvchi unsurlar, desak adashmagan bo'lamiz.

Ushbu yor-yor namunasi Gurlan tumanida aytiladigan va keng tarqalgan quyidagi yor-yor qo'shig'iga ham mazmun, ham ohang, ham ijro etilish ritmiga ko'ra nihoyatda yaqindir:

Avval boshlob Xudoni yod etali yor-yor,
Payg'ambarlar ruhini shod etali yor-yor.
Yor-yorey, yor-yorey.
Oltin qoshiq o'ynob turg'an uling bo'lsin yor-yor,
Kumush qoshiq o'ynob turg'an qizing bo'lg'oy yor-yor.
Yor-yorey yor-yor⁴.

E'tibor bersak, Shovot va Gurlan tumanlarining ijrochilik yo'li va istifoda etilgan so'zlar tarkibida ham deyarli farq mavjud emas. Gurlan tumani aholisining qipchoq lahjasida, Shovot tumanida esa o'g'uz lahjasida muloqot qilishi nuqtayi nazaridan qo'shma so'z tarkibida kelayotgan "atali" va "etali" tarkibiy qismidagina farqlanish mavjud. Buning asosiy sababi shuki, Gurlan tumani Amudaryo ya'ni Qoraqalpog'istonga hudud jihatdan yaqin joylashgan. Xorazm viloyatiga qaraganda Qoraqalpog'istonning shevasi shuning uchun ham ularga ancha yaqin.

² Ushbu yor-yor Shovot tumanida yashovchi, 1962-yilda tug'ilgan, 63 yoshli Shukurjon onadan yozib olindi. Yozib oluvchi: Ozodova Z.

³ Ushbu muborak to'y Shovot tumanida yashovchi, 1962-yilda tug'ilgan, 63 yoshli Shukurjon ona og'zidan yozib olindi. Yozib oluvchi: Ozodova Z.

⁴ Ushbu yor-yor Xorazm viloyati Gurlan tumanida yashovchi, 1950-yilda tug'ilgan, 75 yoshli Rahimova Jamila buvi og'zidan yozib olindi. Yozib oluvchi: Sidabullayeva D.



Yor-yorning boshqa turini Farg‘ona viloyatida ijro etiladigan namunasi orqali ko‘rishimiz mumkin:

Hay-hay o‘lan, o‘lanchi qiz, yor-yor, o‘lanchi qiz.
Tog‘da toychoq kishnaydi-yo, ot bo‘ldim deb,
Yor-yora ot bo‘ldim deb.
Uyda kelin yig‘laydi-yo, yot bo‘ldim deb,
Yor-yora, yot bo‘ldim deb⁵.

Yoki:

Tokchadagi qaychini
Zang bosibdi yor-yor,
Yangi tushgan kelinni
G‘am bosibdi yor-yor.

Yuqoridagi yor-yor qo‘shig‘ida tokchadagi qaychining zang bosishi bilan kelinning g‘am bosishi, toychoqning ot bo‘lib kishnashi bilan qizning o‘z ota uyidan yot bo‘lib ketishi qiyoslangan.

Keyingi viloyat ya‘ni Samarqand viloyatida kuylanadigan yor-yor turi:

Qat-qat-qat qatlama,
Qatlanibdi yor-yor.
Sinalmagan joylarga,
Opam tushdi yor-yor.
Jibakdayin opamni,
Qaylarga tushdi diyin-da.
Shunday yaxshi kuyovni,
Qaydan topdi diyin-da⁶.

Bu “Yor-yor” asosan Samarqand viloyatining Payariq tumanida keng tarzda ijro etiladi. Aynan mana shu yor-yor orqali bu viloyatning boshqa hududlardan farqi juda katta. Misol uchun Qashqadaryo viloyati yor-yorini ko‘rsak:

Qutlug‘ bo‘lsin to‘ylari yor-yor yorone,
Tengi tushibdi bo‘ylari, yor-yor yorone,
Baxtli kelin-kuyovning yor-yor yorone,
Bir xil orzu o‘ylari yor-yor yorone⁷.

Mazkur yor-yor Qashqadaryo tumani Qarshi shahrida kuylanadigan yor-yor turidir. Va bu yor-yor ham boshqa viloyatlardan ancha farqlanadi.

⁵ Ushbu yor-yor Farg‘ona viloyati Buvayda tumanida yashovchi, 1964-yilda tug‘ilgan, 61 yoshli Qobulova Xanifaxon buvidan yozib olindi. Yozib oluvchi: Boymuhammedova H.

⁶ Ushbu yor-yor Samarqand viloyati Payariq tumanida yashovchi 1965-yil tug‘ilgan 60 yoshli Hamidova Gulchehra buvidan yozib olindi.

⁷ Ushbu yor-yor Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida yashovchi 1960-yilda tug‘ilgan 65 yoshli Asadova Shoirra buvidan yozib olindi.



Endi Navoiy viloyati yor-yorlariga murojaat qilsamiz. Bu viloyatda to'y qilmoqchi bo'lganlar qiz va uning oilasi haqida uzoq qarindoshlari yoki qo'shnilaridan so'rab bilib olishadi va shundan so'nggina qizning uyiga sovchilikka borishadi. Asosiy to'y kuni ertalab kuyov tarafdin kelinni olib ketish uchun ko'p bo'lib mashinalar mehmonlar kelishadi. Kuyov tomonda ham turli xil marosimlar o'tkaziladi. Kuyov tarafdin kelgan yoshi katta ayollar kelinga yor-yor aytadilar. Yor-yor quyidagicha bo'ladi:

Yig'lama qiz yig'lama
To'y saniki yor-yor.
Ostonasi tillodan
Uy seniki yor-yor.
Shildir-shildir suvlarga
Sirg'am tushdi yor-yor.
Sinalmagan yigitga
Qizim tushdi yor-yor⁸.

“Avvalo, har bir san'at namunasi, san'at asari inson yaratgan mo'jiza hisoblanadi. Asarga qo'yiladigan talab uning kashfiyoti, oliy darajadagi mahsulot ekani bilan belgilanadi. Binobarin, og'zaki so'z san'atiga mansub asar ham shakli, mazmuni, ijrosi, unda ifodalangan hayot tasviri bilan bizda hayrat tuyg'usini uyg'otmog'i lozim. Agar ana shu hayratni aynan qanday fazilatlar hosil qilishini bilib olsak, fikr yuritish yo'nalishimizda aniq mulohazalar paydo bo'ladi, tahlil qilayotgan asarimiz qadri yanada aniqlashadi”⁹.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, har bir xalqning, millatning, yurtning o'z qadriyatlari, urf-odatlar va an'analari bo'ladi, ular orqali shu xalqning tub ildizigacha o'rganib olishimiz mumkin. Nikoh to'y marosimlarida aytiladigan yor-yorlar qadim zamonlardan buyon bizga meros bo'lib qolayotgan janr hisoblanadi. Har bir inson boshqa bir xalqning qadriyatlarini o'rganishni istasa, avvalo, o'zligidan boshlagani ma'qul. Bu yor-yor turlari bugungi kunda ham o'zining mavqeini yo'qotmay kelyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
2. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent, 2017.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.

⁸ Ushbu yor-yor Navoiy viloyati Qizilcha qishlog'ida yashovchi 1958-yilda tug'ilgan 67 yoshli Eshmuradova Totloy buvidan yozib olindi.

⁹ Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B. 10.